

**UMUM TA'LIM MAKTABLARIDA TARIX FANINI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI**

*Turon fanlar akademiyasi akademigi*  
**Madaminov Maxmudjon Melibaevich**

Dars muqaddasi, chunki u madaniyatimizning rivoji va ma'naviyatimizning yuksalishiga zamin tayyorlaydigan omil hisoblanadi.

“Madomiki o'z tarixini bilgan undan quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan. Biz xaqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni-millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz yana bir bor shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur degan edi I.A.Karimov

Xaqiqatdan ham, bugungi kunda “tarixni bilmasang kelajak yo'q”, “til bilmasang dunyo bo'lmaydi”, “matematikasiz hayot yo'q”.

Barcha fanlar biz uchun muqaddas va aziz, ularni qancha o'rgansak, o'zlashtirsak shuncha bilmasligimizni tushunamiz.

Bilim o'rganishga, madaniyatimizning rivoji ma'naviyatimizning shakllanishiga ustozlarimizning hissasi beqiyos.

Bugungi umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishning dolzarb masalalaridan biri bu-yosh avlodni o'zlikni anglashga yo'naltirishdan iboratdir.

Vatanimiz va xalqimiz olamshumul voqealarga boy tarixga ega ekanligini, qadimda Turon so'ngra Mavorounnaxr va Turkiston nomlari bilan shuxrat topgan bu mamlakatning va uni o'z mexnati bilan obod etgan xalqimizning o'tmishi qiziqarli va saboqlidir ekanligini, madaniyatimiz va ma'naviyatimizning jahon madaniyatiga qo'shgan xissasi, ajdodlarimiz tamonidan yozib qoldirilgan yozma manbalar va shu bilan birga, ular tamonidan bunyod etilgan moddiy manbalar aniq va to'liq, rang bermasdan ularga anglatish lozim.

Tarix hayotning haqiqiy o'qituvchisidir. U bizni zo'ravonlik bilan hamma narsaga erishishga emas, balki o'zaro murosa va boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadigan, tarixiy sana va nomlar uchun emas, balki ajdodlarning bebaho yaratuvchanlik tajribasi uchun o'rganadigan fan ekanligini anglatish lozim.

Zero jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribalaridan bugungi kunda foydalanish yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslik, mamlakatimizda buyuk jamiyat qurishni va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashimizni tezlashtiradi. Shu sababli rivojlanayotkan mamlakatlar tarixini chuqur o'rganish, uning ijobiy tamonlaridan Respublikamiz ravnaqi uchun foydalanish har birimizning muqaddas burchimizdir.

2022-yil 15-yanvarda umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun tarix fanidan milliy o'quv dastur yaratildi.

Avvalgi o'quv dasturi 90% nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodladishga yo'naltirilgan edi. Yangi o'quv dasturining mazmuni 50% nazariya, 50% amaliyot bo'lib o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab quvvatlaydi.

O'qituvchi tariximizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini chuqur anglovchi mutaxasis hisoblanadi.

Ayni paytda u o'quvchi ongiga yuksak vatanparvarlik g'oyalarini singdiruvchi, millatning uzoq ming yillar davomida qo'lga kiritgan yutuqlarini targ'ib etuvchi ziyolidir. Hozirgi ustoz zukko, keng fikrlovchi, axborot almashinuvi kuchaygan, dunyo bo'ylab keng tarqalib borayotkan sharoitda yoshlarga yo'l ko'rsatuvchi yangicha tafakkur etadigan mutaxasisdir. U sivilizatsiya madaniyatlar tarixini, hozirgi kunning oqilona baholab, o'quvchilarga to'g'ri ular tushunadigan tilda yondashib yetkazadigan oqil insondir.